
Rishtonning yangi Ma'naviyat va ma'rifat maskani

Farg'ona viloyatida ma'naviyat maskanlari soni yana bittaga ko'paydi. Rishton tumanida Ma'naviyat va ma'rifat maskani tashkil etilib, o'z faoliyatini boshladi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-mart kuni qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida sohada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zining kulolchiligi bilan mashhur bo'lgan Rishton tumanida ham kitobxonlik, iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini yaxshilash kabilar doimiy e'tiborda. Yangi maskanning tashkil etilishi esa targ'ibot ta'sirchanligini yanada kuchaytirish va aholi o'rtasida turli tadbirlarni tashkil etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu yerda tadbirlar zali, kutubxona, muzey, targ'ibotchilar, yosh hunarmandlar xonasi bor.

Maskanning ochilishida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Ma'sudjon Sulaymonov, Rishton tumani hokimi o'rinbosari Zarifjon Umarovlar so'zga chiqib, hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash kabi ishlar xususida so'z yuritdi. Ma'naviyat va ma'rifat maskani ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qilishi qayd etildi.

Ramziy lenta qirqilib, ishtirokchilar yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. San'atkorlarning kuy-qo'shiqlari barchaga manzur bo'ldi.

2022-12-03 09:31:49